

**ABDULLA QAHHORNING “BOSHSIZ ODAM” HIKOYASINING LISONIY TAHLILI**

*Tojimurodova Dinora, Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba*  
*Allamberganova Maftuna, Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasi badiiy va lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Abdulla Qahhor hikoyalari, “Boshsiz odam” hikoyasi, leksikologiya, ibora, omonim, sinonim, antonim, paronimlar.

Oʻzbek hikoyachiligida yozuvchi Abdulla Qahhor ijodiga mansub hikoyalari katta ahamiyatga ega. Adibning hikoyalari, mavzusidan qatʼi nazar, bir maqsadga – kishilarni ezgulik ruhida tarbiyalash, ularga estetik zavq berishga qaratilgan. Muhimi shundaki, adib hikoyalarida bu maqsadga nasihat qilish, bayon etish yoʻli bilan erishilmaydi. Balki obrazlar faoliyati, asarning umumiy ruhidan ustalik bilan keltirib chiqariladi. Yozuvchining oʻtmish haqidagi hikoyalari, ayniqsa, badiiy mahorat jihatidan ibratlidir. Ularda yozuvchi asar gʻoyasini gavdalandirishda obrazlarning xatti-harakatlarini asos qilib oladi va personajlar xarakterini ularning oʻz harakati, feʼl-atvori va tili vositasida ochadi. Natijada, hikoyalardagi obrazlarning har biri oʻziga xos xatti-harakati, xulq-atvori va tashqi koʻrinishi jihatidan bir-biridan ajralib, farq qilib turadi. Adib hikoyalarida qarama-qarshi qoʻyish usulidan, hayotiy konflikt va psixologik tahlildan, jonli xalq tili boylıklaridan mahorat bilan foydalanadi. Asarning gʻoyaviy mazmunini tugal va ixcham sujet vositasida jozibali ifodalaydi. “Anor”, “Bemor”, “Oʻgʻri”, “Tomoshabogʻ” kabi hikoyalarida yozuvchi voqeani totugundan boshlaydi. Bunda u voqeaning uzundan-uzoq tarixini bayon etib oʻtirmasdan, masalaning mohiyatini ochib beradigan xarakterli obraz va detallarni ishga soladi. Bundan tashqari Abdulla Qahhorning hikoyalari maqsadning aniqligi, sujetning siqqligi, kompozitsiyaning puxtaligi, xarakterlarning yorqinligi, psixologik tahlilning kuchliligi bilan katta estetik ahamiyatga ega. Bu fazilatlar adibning zamonaviy mavzudagi hikoyalarida ham koʻzga yaqqol tashlanib turadi.

Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasi badiiy jihatdan mukammal asarlaridan biri sanaladi. Hikoya roviy nutqi bilan boshlanib, unda Niso buvi haqida maʼlumot keltiriladi. Muallif tasvir bayonida aniq maʼlumotlar keltirish bilan birga, ikkilanish, gumonsirash tendensiyasilarini ham berib boradi. Sujetning keyingi qismlarida ikkilanish ohangi kuchayib boradi. Roviylarida: “Bunga hamma ham hayron qoldi. Bu toʻgʻrida baʼzilar: Niso buvi ilgari ham usta Abdurahmon bilan don olishib yurar ekan,– degan gapni qilishdi, baʼzilar: “Bechora nima qilsin ikkita bolasi bor, usta Abdurahmonning ham oʻlgan xotinidan oʻgʻli bor. Vaqti kelganda tili

qisilmaydigan ish qilibdi-da,“ deyishdi”. Bu yerdagi roviy nutqida metaforik matn qo‘llanilib,u o‘zgalar gapi tarkibida berilib, syujet davomida matnning asl ma’nosi ochilib boradi.

Yozuvchining bu hikoyasining lingvistik tahlilini ham ko‘rib o‘tamiz. Hikoya lingvistik jihatdan tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi asosida o‘rganilayotganligi uchun dastlab leksikologiya atamasiga to‘xtalamiz.

Leksikologiya – tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘lim bo‘lib, uning fandagi vazifasi so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya’ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so‘z ma’nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko‘rilganda, so‘z ma’nolari va tushunchalarning o‘zaro bog‘liq holda bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Frazema (frazeologizm, ibora) – biror bir tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi hisoblanadi: *qovog‘idan qor yog‘yapti, kapalagi uchdi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi, qovun tushirdi* va hokazo. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan so‘zga teng, lekin uslubiy bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo‘yoqdor bo‘ladi. Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasida berilgan iboralarga to‘xtalamiz:

1. Bu to‘g‘rida ba’zilar: «Niso buvi ilgariyam usta Abdurahmon bilan *don olishib yurar ekan...*» degan gapni qilishdi, ba’zilar: «Bechora nima qilsin, ikkita bolasi bor, usta Abdurahmonning ham o‘lgan xotinidan bitta o‘g‘li bor, vaqti kelganda *tili qisqa* bo‘lmaydigan ish qilibdi-da...» deyishdi.

Don olishib yurmoq- o‘zgalar bilan yaqin munosabatda bo‘lish ma’nosida;

Tili qisqa- aybi bor ma’nosida

2. Bir kuni Niso buvi: «Ursangiz o‘sha do‘koningizga olib borib uring», deganida usta: «Ha, *joning achiydimi*, bundan keyin men urayotganda kulib turmasang uch taloqsan...» deb yubordi.

Joni achimoq- qayg'urmoq

3. Faxriddin erka o‘sgan tantiq bola bo‘lgani uchun Niso buvi: «Ha, ishqilib, ikkovining ham *boshi omon bo‘lsin*», deb qo‘ya qolar, bu «yo‘q» degani edi.

Boshi omon bo‘lmoq - sog‘ –salomat bo‘lmoq

4. Keyingi yillarda Niso buvi qizlari tufayli necha marta *kirdi-chiqdi* bo‘lib oldi.

Kirdi-chiqdi bo‘lib qolmoq – es-hushi joyida emas ma’nosida

5. Niso buvi *rang-tusi o‘chib*, devorga suyanganicha qola berdi.

Rang-tusi o‘chdi – qo‘rqib ketdi

6. . Bir kuni u *betini qattiq qilib*, kuyovga ochiq aytdi:

– Faxriddin, hali yoshsizlar.

Betini qattiq qilmoq – hech narsadan uyalmaydigan ma’noda

7. Niso buvi besh kun deganda ishining natijasini ko’rdi. Oltinchi kuni kechasi Mehri to’lg’anib chiqdi. Ertalab juda yomon ahvolga tushdi: uyning u boshidan bu boshigacha «dod» deb yumalaydi. U xuftongacha qolmaydigan ko’rinardi. Niso buvining *dami ichida*

Dami ichiga tushmoq – qo’rqmoq

8. Mehri kasalxonadan chiqqandan keyin Niso buvi ikkala qizi *bilan bosh olib chiqib ketdi*.

Bosh olib chiqib ketmoq – ketmoq.

9. Niso buvi eri o’lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi. Ikki-uch kishi sovchi qo’yganda u, ikki bola bilan tinch turmush qila olishini ko’z oldiga keltirolmay, rozilik bermagan edi, nima bo’ldi-yu, usta Abdurahmon kishi qo’yganda darrov rozi bo’la qoldi.

Ko’z oldiga keltirolmay – tasavvur qilolmay

10. Niso buvi pichoq borib suyagiga tekkandan keyin qizlarini internatga berishni ham o’yladi.

Pichoq borib suyagiga taqalmoq – chorasiz qolmoq.

Hikoyada so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari: omonim, sinonim, antonim va paronimlar qatnashgan o’rinlar ham mavjud.

Niso buvi eri o’lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi. Usta Abdurahmon qizlarni ko’p uradi. Bir kuni Niso buvi: «Ursangiz o’sha do’koningizga olib borib uring», deganida usta: «Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganda kulib turmasang uch taloqsan...» deb yubordi. Niso buvining endigi qayg’usi Mehrining bo’yida bo’lib qolishi. Bir kuni u betini qattiq qilib, kuyovga ochiq aytdi. Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir-ikki qimirlatib, bo’lagi bilan burnini artib javob berdi. Niso buvi qayerdandir yangi bir chora topib keldi. Ertalab juda yomon ahvolga tushdi: uyning u boshidan bu boshigacha «dod» deb yumalaydi. Kasalxonaga yuboramiz. Niso buvi kasalxonadan yarim kechasi kelib saharda yana ketdi. Kirganingdan keyin avval so’ra, yengil bo’lsa «xayriyat» degin. Sening yo’qliging uchun uyda tura olmayotibman. Mehri sekin: – Keling, – dedi. Kasalni toliqtirib qo’yasiz, bas! – dedi va eshikni ko’rsatdi.

Omonimlar:

Urmoq – kaltaklamoq, do’pposlamoq;

Urmoq – itning akkillashi.

Sinonimlar:

O’lmoq – vafot etmoq, qazo qilmoq, olamdan o’tmoq, bu dunyodan ko’z yummoq;



Bet- yuz, aft, bashara, chehra, oraz, jamol;

Kasalxona- shifoxona; sekin- asta; sahar-tong

Antonimlar:

Yosh - qari, ko‘p- oz, qattiq - yumshoq, yaqin- uzoq, qayg‘u- shodlik

Qalin- yupqa, yanggi- eski, yomon- yaxshi, kecha- kunduz, avval- keyin, yengil- og‘ir, yo‘q- bor, qalin- yupqa, pastki- yuqorigi,

Paronimlar:

Qattiq- qatiq

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasida muallif pozitsiyasi va roviy funksiyasi haqida so‘z yuritilgan. Hikoyada real voqelikni badiiy voqelikka aylantirishdagi muallif mahorati, tasviriy vositalar: o‘xshatish, qiyoslash, kinoya kabi badiiy tasvir vositalardan foydalanish mahorati, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati, hikoya strukturasi roviy funksiyasi, o‘quvchi va kitobxon munosabatlarini amalga oshirishdagi uning vazifasi, o‘rni va ahamiyati, hikoya janrida roviyning betaraf, tarafkashlik pozitsiyasi, obrazlar haqidagi ma‘lumotni kitobxoniga asosli va tez yetkazish usulining xarakterlar shakllanishidagi muhimligi masalasi, kitobxon kutgan voqealarning syujetda ro‘y bermasligi, tasvirda qo‘llanilgan kontrast usulining muhimligi, uni matnda ishonarlililigini ta‘minlash kabilar haqida fikr yuritilgan. Hikoyani lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, unda qo‘llangan frazeologizmlar, omonim, sinonim, antonim va paronimlarning o‘rni va ahamiyatini ham bilib oldik.

### Adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor “Anor” qissa va hikoyalar to‘plami. “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, Toshkent – 2012, 152-bet
2. Saydulla Mirzayev “XX asr o‘zbek adabiyoti”. “Yangi asr avlodi”, Toshkent – 2005.
3. Dilnoza Murotova “Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasida muallif pozitsiyasi va roviy funksiyasi” maqolasi.
4. Kushkarbekova Marjan “Leksikologiya tushunchasi va unda so‘zning mohiyati” maqolasi.
5. Shavkat Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent – 1978.
6. Radjabbaevich, K. N., & Durdona, A. (2022). Ancient turkish language and koyn event.
7. Киличов, Н. Р. (2021). «ОЛТУН ЁРУФ» АСАРИДА ИНСОН ТАНА АЪЗОЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛЕКСЕМАЛАР. *Вестник КГУ им. Бердаха*. №, 2, 242.
8. Kilichov, N. R., & Kabulov, I. (2023). “KÖNÜL” KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING BA’ZI XUSUSIYATLARI (Maxtumquli she’rlari

- misolida). ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI, 2(6), 130-134.
9. Kabulov, I., & Kilichov, N. R. (2023). MAXTUMQULI SHE‘RLARIDAGI BA‘ZI SOMATIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 1(8), 72-79.
  10. Radjabbayevich, K. N. (2023). ELEMENTS OF THE KIPCHAK DIALECT IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE (In the example of the lexicon of the “Oltun Yoruk” work). *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 2(5), 108-114.
  11. Янгибаева, Н. (2022). Статьи по языкознанию в журнале «Образование и педагог».
  12. Назира, Ю. (2019). К МОРФОЛОГИЧЕСКИМ И ОРФОГРАФИЧЕСКИМ ПРОБЛЕМАМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ В 1920-Е ГОДЫ XX ВЕКА. *АНГЛИСТИКУМ. Журнал Ассоциации-Института английского языка и американских исследований*, 7(12), 35-41.
  13. Gulmanovna, Y. N., & Fauziya, M. (2023). O ‘zbek va inglil tilida frazeologizmlarning qo‘llanilishi. *Gospodarka i Innowacje.*, 37, 196-198.
  14. Yangibaeva, N. (2018). STUDYING OF THE UZBEK DIALECTS IN THE 1920 YEARS. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 54-57).
  15. Gulmanovna, Y. N. (2023). TIL O‘QITISH DASTURLARINING TA‘LIMDAGI O‘RNI. *Miasto Przyszłości*, 35, 247-249.
  16. Gulmanovna, Y. N., & Matmuratova, F. (2023). The Fascinating Origins of English Phrases. *Miasto Przyszłości*, 37, 197-198.
  17. Ibragimova, Z. (2022). THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS AND THE PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF THEIR ACTIVITIES. *Science and Innovation*, 1(5), 416-420.
  18. IBRAGIMOVA, Z. Y., & YABBARBERGENOVA, S. WORDS OF POSITIVE WISHES OF THE UZBEK AND KARAKALPAK PEOPLES AROUND THE TABLE. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (3), 685-688.
  19. Ibragimova, Z. (2023). MULTI-MEDIA COMPETENCE AS A COMPONENT OF FUTURE TEACHER TRAINING OF THE GERMAN LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B10), 356-359.